EUROPEAN JOURNAL OF SCIENCE ARCHIVES CONFERENCES SERIES



2025

APREL-JUNE

AACHENER, GERMANY

Institute for Scientific Research and Publication
&
Research and Publishing Center virtualconferences. press

European journal of science archives conferences series/ Konferenzreihe der europäischen Zeitschrift für Wissenschaftsarchive

Internet address: http://ifsrp.edu.ge/
E-mail: info@ifsrp.edu.ge/
Published by Institute for Scientific Research and Publication & Research and Publishing Center virtualconferences. press
Issued monthly
DOI prefix: https://doi.org/10.5281/zenodo.15765956
Hausarztzentrum Aachen-Forst Trierer Str. 67, 52078 Aachener, Germany

Requirements for the authors.
The manuscript authors must provide reliable results of the work done, as well as an objective judgment on the significance of the study. The data underlying the work should be presented accurately, without errors. The work should contain enough details and bibliographic references for possible reproduction. False or knowingly erroneous statements are perceived as unethical behavior and unacceptable.
Authors should make sure that the original work is submitted and, if other authors` works or claims are used, provide appropriate bibliographic references or citations. Plagiarism can exist in many forms - from representing someone else`s work as copyright to copying or paraphrasing significant parts of another`s work without attribution, as well as claiming one`s rights to the results of another`s research. Plagiarism in all forms constitutes unethical acts and is unacceptable. Responsibility for plagiarism is entirely on the shoulders of the authors.
Significant errors in published works. If the author detects significant errors or inaccuracies in the publication, the author must inform the editor of the journal or the publisher about this and interact with them in order to remove the publication as soon as possible or correct errors. If the editor or publisher has received information from a third party that the publication contains significant errors, the author must withdraw the work or correct the errors as soon as possible.

Part-2. Aprel-June 2025
Aachener, Germany 2025
The publisher is not responsible for the materials published in the collection. All materials are Submitted in the author`s edition and reflect the personal position of the conference participant.
Contact information of the organizing committee of the conference:
Email: info@ifsrp.edu.ge/ or info@virtualconferences.press **Official site:** http://ifsrp.edu.ge/ or www.virtualconferences.press
https://doi.org/10.5281/zenodo.15765956
Available at virtualconferences. press
ORCID 0000-0001-6156-3630

OPEN ACCESS

2

Chorvachilik tarmog‘ida mahsulotlarni qayta ishlash samaradorligini oshirish imkoniyatlari

Nurmanov Sherzod Xo‘jayarovich - Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi assistenti.

Annotatsiya: Mamlakatimizda barqaror va samarali iqisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar bugungi kunda o‘zining natijalarini ko‘rsatmoqda. Jumadan, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy uzgarishlarni amalga oshirsh, axoli daromadlarining o‘sishini taminlash, samarali tashqi savdo xamda investetsiya jarayonlarini kuchaytirish, qishloq xo‘jaligi va uning maxsulotlarini qayta ishlovchi tarmoqlarni islox xamda moderinizatsiya qilish, kichik biznes va tadbirkorlik sohasi barqaror rivojlantirish, oqilona olib borilgan moliya-kredit siyosati respublikada iqtisodiyotning tez suratlar bilan rivojlanishini taminlamoqda.

Kalit so‘zlar: samarali iqisodiyot, investetsiya, tarkibiy uzgarish,rivojlanish, islohot, moliya, kredit siyosati, kichik biznes, tadbirkorlik.

Аннотация: Реформы, проводимые в нашей стране для создания стабильной и эффективной экономики, сегодня показывают свои результаты. С пятницы осуществить в короткие сроки глубокие структурные изменения в экономике, обеспечить рост доходов населения, усилить эффективные внешнеторговые и инвестиционные процессы, реформировать и модернизировать отрасли переработки сельского хозяйства и его продукции, устойчиво развивать сектор малого бизнеса и предпринимательства. Рациональная финансово-кредитная политика обеспечивает быстрое развитие экономики республики.

Ключевые слова: эффективная экономика, инвестиции, структурные изменения, развитие, реформа, финансы, кредитная политика, малый бизнес, предпринимательство.

Abstract: The reforms implemented in our country to create a stable and effective economy are showing their results today. From Friday, to implement deep structural changes in the economy in a short time, to ensure the growth of the population's income, to strengthen the effective foreign trade and investment processes, to reform

and modernize the industries processing agriculture and its products, to sustainably develop the small business and entrepreneurship sector, A rational financial and credit policy ensures the rapid development of the economy in the republic. **Key words:** efficient economy, investment, structural change, development, reform, finance, credit policy, small business, entrepreneurship.

Kirish. Mamlakat yalpi ichki mahsuloti 9,1 barobarga ko‘payganligiga qaramasdan aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot 7,7 amaldagi pirovard iste’moli 9,9 iste`mol mollari ishlab chiqarish esa 9,9 barobarga ko‘paygan.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish 6,2 barobarga jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 6,6 va chorvachilik mahsulotlari 5,7 barobarga oshgan.

Chakana tovar aylanmasi 10,4 marta va aholiga pullik xizmat ko‘rsatish 13,7 martaga ko‘paygan .

Tahlil va natijalar. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat sohalarini xususan oziq-ovqat, yengil sanoat, charm poyafzal ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash hamda zamonaviy korxonalarning bunyod etilishi natijasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 9,2 mataga nooziq-ovqat mahsulotlarini 11,9 martaga ko‘paygan .Shu davrda oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilish 206.1 mln .AQSH dollorlarida 1675.6 mln .AQSH dollorigacha yoki 8,1 barobarga ko‘aygan .

O‘rganilayotgan davrda aholi jon boshiga iste’mol tavarlar islab chiqish 105,3 ming so‘mdan 883,0 ming so‘mgacha yoki 8,4 martaga shu jumladan, oziq- ovqat mahsuotlarini 41,7 ming so‘mdan 324.9 ming so‘mgacha nooziq-ovqat mahsulotlari 60,0 ming so‘mdan 522,3 ming so‘mgacha, yengil sanoat mahsulotlari esa 11,1 ming so‘mdan 110,3 ming so‘mgacha yoki mos ravishda 8,8 8,7 va 9,9 barobarga ko‘paygan.

Qayta ishlanib, istemol tovarlari sifatida sanoat korxonalarida ip gazlama ishlab chiqarish 30,3% ga, gilam va gilam mahsulotlari 37,4ga, poyabzal 109,3ga, go‘sht va go‘sht mahsulotlari 21,0ga, kalbasa mahsulotlari 32,3ga, sut va sut mahsulotlari

20,5ga, non va non mahsulotlari 0,2ga, konservalar 23,2ga, un 8,2ga, yorma 36,3ga, qandolat mahsulotlari 55,.8ga, makaron mahsulotlari 18,0ga, tabiiy choy 8,2 foizga oshgan. Junli gazlama ishab chiqarish deyarli 5 barobarga o‘simlik yog‘i esa 0,1 foizga kamaygan .

Go‘sht va go‘sht mahsulotlarini ishlab chiqarish 44.8 foizga sut va sut mahsulotlari ishlab chiqarish 49,7 foizga ko‘paygan. Aholi jon boshiga go‘sht va go‘sht mahsulotlari ishlab chiqaridh 5,8 kgdan 7,1 kggacha, sut va sut mahsulotlari 9,5kgdan 12,1 kg gacha yoki mos ravishda 22,4% va 27,4% oshgan.

Respulikada ishlab chiqarilgan chorvachilik mhsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarning yetishmasligi mavjudlarining eskirgani va to‘la quvvat bilan ishlamasligi oqibatida xom ashyoning katta qismi qayta ishanmasdan qolmoqa qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlab tayyor mahsulot darjasiga yetkazuvchi yengil sanoat korxonalari asosiy fondlarining eskirish darsjasi 12.6% ni, oziq ovqat ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalariniki esa 60.3 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sanoat asosida qayta ishlash yildan yilga ko‘payib borayotganliligiga qaramasdan paxta xom ashyosini 34% , mevalarning 17 foizi, sabzavotlarning 12 foizi, poliz ekinlarining 7 foizi , uzumning 25 foizi, terining 28 foizi, junning 17 foizi, go‘shtning 27 foizi sutning 7 foizi sanoatda qayta ishlanmoqda xolos.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi ko‘rxonalar sonini ko‘paytirish bilan birgalikda mavjudlarini modernizatsiyalash zarur. Shunga qaramasdan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar iqtisodiy samaradorligi qishloq xo‘jaligiga nisbatan ancha yuqori. Qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlovchi soha korxonalarining ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida xom ashyo xarajatlari 86-87 foiz bo‘gan holda rentabillik darajasi 47-48 foizni tashkil qilsa qishloq xo‘jaliginiki esa atiga 18,7 % yoki deyarli

3 barobar past. Tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan xarajatlarning

65-75foizi xom ashyo yetishtiruvchilar hissasiga to‘g’ri kelgani holda olonadigan daromadning 35-40% ga egalik qilmoqda. Boshqacha qilib aytganda, xom ashyo yetishtiruvchilar o‘z mahsulotlarini yarim narxidan arzon baholarda berishga majbur bo‘lishmoqda. Agro sanoat majmuasi miqyosida qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan mahsulotlarini saqlash alohida ishab chiqarish jarayoni sifatida mustaqil faoliyat turiga aylanmoqda. Yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mhsulotlarini buzilishiga va isrov bo‘lishiga yo‘l qilmasdn saqlash uta muxim ahamiyatga ega ekanligi shundan iboratki, aholini yil davomida uzluksiz oziq ovqat mahsulotlari, sanoatni esa xom ashyo bilan taminlash bevosta ushbu sohaning shakllanishi va rivojlanishiga bog‘liq. Ammo saqlash va qayta ishlash korxonalari yetishmasligi va zamon talablariga javob bermasligi ishlab chiqarilgan qishloq xojalik mahsulotlarining isrof bo‘lishiga olib kelmoqda. Saqlashning ilg‘or usullarini qo‘llash mahsulotlar isrof bo‘ishini keskin kamaytirish imkonini beradi.

Mahsulotarni uzoq muddattli va samarali saqlash qishloq xo‘jalik mahsulotlariga nisbatan narxlar oshgan mavsumlarda sotishni tashkil etish ularni yetishtiruvchu va saqlovchi subyektlarning iqtisodiy samaradorligini oshishiga, saqlash maxsulotlar ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jalik korxonalarining o‘zida yoki istemol qilinadigan joylorda maxsus amalga oshiriladi.

Chorvachilik mahsuotlarini xususan go‘sht, sut qorako‘l teri, jun qo‘zi oshqozoni (shirdon)kabilarga dastlabki ishov berish va saqlashning asosiy vazifasi minimal xarajatlar hisobiga o‘z vaqtida va sifatli qabul qilish tozalash, quritish, saqlash va qayta ishlash jarayonlarini amalga oshirish hisoblanadi. Bu ishlar bilan qishloq xo‘jalik, tayyorlov va qayta ishlash korxonalari shug‘ullanishadi

O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan jami go‘shtning 19.1 foizin qo‘y go‘shti tashkil etdi jon boshiga esa 11.7 kg tirik vaznda qo‘y qo‘shti ishlab chiqarilgan . barcha go‘sht turlarining Ichida o‘zbekisonda kam mehnat va moddiy xarajatlar sarflaniladi. Cho‘l yaylov chorvachiligi xo‘jliklarida qo‘y goshtini ishlab chiqarish qoramol cho‘chqa goshtiga nisbatan 2.1-2.5 martaga parranda go‘shtiga nisbatan esa

2.7-3.2 marta arzonga tushadi. Shu bilan birgalikda cho‘l yaylov chorvachiigi xo‘jaliklari olayotgan daromadlarning 70-75% i qo‘ylarni tirik vaznga go‘shtga sotishdan kelib tushmoqda. Shu sababga ko‘ra qo‘ylarni bo‘rdoqilash , go‘sht ishlab chiqarish hamda go‘shtni qayta ishlash xo‘jaliklari uchun o‘ta muhum iqtisodiy moliyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan texnologik jarayonlar hisoblanadi.

Qo‘ylarni burdoqilash asosan 3 usulda amalga oshiriladi. Birinchisi, yaylovlarda boqib bo‘rdoqilash, ikkinchisi aralash yaylovda boqish va qo‘shimcha omuxta yem berish, uchinchisi maxsus oziqlantirish maydonchalarida yaylovlarda boqmasdan bo‘rdoqilashning keltirilgan dastlabki ikki usuli hosildorligi yuqori bo‘lgan yaylovlarda qulay, arzon va tez semertirish usullari hisoblanadi.

Burdoqilangan mollarni kechiktirmasdan muddatida so‘yish yoki go‘shtga topshirish muddatida soyosh yoki go‘shtga topshirish xo‘jaliklar uchun muhim iqtisodiy va moliyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan texnologik jarayon hisoblanadi. Bu jarayonni samarali tashkil etish orqali semertirilgan mollarning tirik og’irligi va go‘sht chiqimi ko‘payadi ortiqcha sarf harajatlarning oldi olinadi. Go‘sht sanoati mollarni so‘yish, go‘sht, sovutilgan va muzlatilgan go‘sht hamda go‘sht mahsulotlari ishlab chiqarish bilan bevosita bog’liq bo‘lgan faoliyat turlarini amalga oshiradi. Bundan tashqari atshqari soha korxonalari mol go‘shti yog’larini ajratib olish va eritish , go‘sht va go‘sht-suyak uni, qoshimcha mahsulot hisoblangan xom teri ishlov berilgan teri, suyak va boshqalarni ishlab chiqarish bilan ham shug’ullanishadi .

Go‘sht sanoati korxonalrini shartli ravishda 3 guruhga bo‘lish mumkin: so‘yish va so‘yib sovutishning so‘yishdan farqi korxonada suvutish uskunalari mavjud bo‘lib, sovutilgan go‘shtlarni qisqa muddatli yoki muzlatilgan go‘shtlarni uzoq muddatli saqlashga mo‘lallangan ;

go‘shtni qayta ishlovchi zavodlar mollarnisuyishdan hosil bo‘lgan maxsulotarni qayta ishlaydi;

Sohaning asosiy korhonalari bo‘lib,bir semenada 5tonadan 200tonagacha go‘shtga ishlov beriladigan go‘sht kambinatlari va bir semenada 10tonadan 40tonnagacha go‘sht mahsulotlarini tayyorlaydigan go‘shtni qayta ishlaydigan zavodlar hisoblanadi .Ayrim qishloq ho‘jalik korhonalarida mollarni so‘yish va go‘shtnu qayta ishlash sexlari tashkil qilingan.Bular kichik va o‘rtacha quvvatdagi sexlar hisoblanib,bir semenada 2tonnagacha go‘sht mahsulotlarini qayta ishlashga asosan kalbosalar ishlab chiqarishga mo‘ljallangan O‘rganilgan davrda sanoatda go‘sht va go‘sht mahsulotlari ishlab chiqarish 221,1tonnaga yetib ,48,8 foiz , jon boshiga esa mos ravishda 5,8 kg. 7,7kg.,32,8 foizga ko‘paygan. Istemol qilingan go‘sht va go‘sht mahsulotlari shu davrda 292,0 ming tonnadan 310 ming tonnagacha yoki 6,2 foizga oshgan. Jon boshiga istemol qilingani esa 11,1 kg.dan 9,99kg.gacha yoki 10 foizga kamaygan. Bu malumotlardan ko‘rinib turibdiki, yiliga 90-100 ming tonna go‘sht chetdan olib kelinib qayta ishlanmoqda.

Go‘sht va go‘sht mahsulotlari ishlab chiqarish sohasi korhonalari sifatli hom ashyo bilan taminlanishi muhim ahamiyatga ega mo‘lgan muammolardan bir ekanligining sababi jami harajatlarning deyarli 70% chorvachilik hom ashyosini to‘g`ri kelgan, olinadigan mahsulotlarning istemol qiymati bevosita ularning sifat ko‘rsatgichlariga bog`liqligi bilan izoxlanadi.

Aniqlanganki, obyektiv baho beruvchi ko‘rsatgich bu galda og`irligi, u esa be vosita molning yoshiga va jinsiga bog‘liq. Go‘sht chiqimi molning yoshiga bog‘liq.Qo‘ylarning tirik vaznining tez suratlar bilan o‘sishi ular hayoting birinchi 5 oyligida va o‘sishining davom etishi esa 18 oyligigacha kuzatiladi.

Hozirgi vaqtda go‘sht sanoati korhonalri tomonidan 500 turdan ortiqroq go‘sht mahsulotlari tayyorlanmoqda, jumladan kalbasaning 150 turi,50 turdan ko‘proq go‘shtli konserva mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda.

Ammo,cho‘l-yaylov chorvachiligi xo‘jaliglarida mollarni so‘yib, go‘shtni qayta ishlashning imkoni bo‘lmaganligining sababli deyarli barcha molar tirik, go‘sht shaklidagisiga nisbatan 2 barobar arzon narxlarda sotilmoqda.

Qo‘ychilikning yo‘ldosh mahsulotlaridan biri – bu jun hisoblanadi. Qo‘y junini qirqishni tashkil etish kata mehnat, moddiy harajatlar va javobgarlikni talab etadigan ishlab chiqarish jarayonidir.Qora k`ol qo‘ylari dag`al jun beruvchi zot bo‘lib yiliga 2 marta bahor va kuzda qirqiladi. Qirqishdan oldin mahsus basenda cho‘miltiriladi va qo‘ylarning juni qurigandan keyin maxsus juhoslangan punkitda qiriqib olinadi va junni dastlabki tozalash jarayoni amalga oshiriladi, navlarga ajratiladi va zararkunandalarga qarshi ishlov berilib, toylanadi, istemolchiga yetqazib berilgunga qadar, jihozlangan omborlarda saqlanadi.

Ammo, respublikada ishlab chiqarilayotgan junga talabning keskin qisqarishi, juni sotishdan olingan daromad qo‘yni qirqish xarajatlaridan xam kamligi, katta mehnat va moddiy xarajatlar xisobiga ishlab chiqarishgan junni bir qismidan voz kechishga yani axlatga chiqarib tashlanishga yoki yoqib yuborishiga olib kelmoqda.

Bunday xolatning yuzaga kelishiga sabab ishlab chiqarilgan junning qayta ishlovchi korxonalarning juda kamligi mavjudlari ham texnik va texnalogik jihatdan eskirganligi ular tomonidan harid qilingan jun haqini yillar davomida to‘lab berilmasligi hamda marketing hizmatining yo‘lga qo‘yilmaganligidir.

Qozog‘iston respublikasida ham junni qayta ishlash korxonasi ishga tushurgunga qadar xaridor topilgandagina 1 kg dag`al jun 5 tengiga sotilgan, quyni qirqish uchun esa 50 tenge xaq tulangan. Ishlab chiqarilgan junni katta qismini yoqib yuborilgan yoki kumib tashlangan. Ular tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida yuvilgan junga talab katta ekanligi aniqlangan. Zavodda qayta ishlanadigan junni hammasini eksport shartnomalari tuzilgan. Zavod ishga tushgansan keyin qayta ishlangan junning xaridorlari 235 mln tenge tulovni oldindan amalga oshirishgan hozirda zavod qayta ishlagan 1.5 ming tonna junning 500 tonnasini eksportga yuborgan. Yuvilgan junga talab katta bulganligi sababli yiliga 3 ming tonna junni qayta ishlash quvvatiga ega kombinat junni yuvib uddalay olmaganligi tufayli bu jarayonga TARAZAVA ALMAOTA zavodlari ham jalb

qilingan. Kombinat 1 kg dag‘al junni sotib olish narxini 18 tengegacha oshirgan.

Yillik ishlab chiqarish quvvati 20 ming tonna junni qayta ishlovchi “Ontustik” SEZ zavodi qurilishi boshlangan va u ishga tushirilmasidan, Rossiya va Xitoy mamlakatlaridan maxsulotni sotib oluvchi xaridorlar chiqishdi.

Respublikamizdagi ayrim tadbirkor, hunarmandlar va oilalar tomonidan dag`al jundan tayyorlangan bosh, ustki va oyoq kiyimlar, gilam va gilam mahsulotlari, uy xujaligi va otlar egar-javduklari uchun tayyorlangan jun buyumlar, sovg`a va suviner hamda boshqa tayyor mahsulotlarga tashqi va ichki bozorlarda haridorlar kupligini kursatmoqda. Dekam, mamlakatda ishlab chiqarilayotgan jun hom ashyosini qayta ishlashni tashkil qilish bugungi kunning o‘ta dolzarb masalasidan biri hisoblanadi. Bu masalaning yechimini topish faqatgina soha samaradorligini oshirishga, balki, cho‘l-yaylov chorvachiligi joylashgan hududlardagi iqtisodiy-ijtimoiy muammolarning ijobiy hal bo‘lishiga ko‘maklashadi va ekologik muhitning yaxshilanishiga olib keladi.

Respublika hududining istiqbolda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tezlashtirish va hom ashyo yetishtiruvchilarga nisbatan uni qayta ishlovchilar 2-3 barobar ko‘p daromad olayotganligini hisobga olib, cho‘l-yaylov chorvachiligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korhonalarni joylarda tashkil etish maqsadga muofiq. Yani, ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotishni bir korhona yoki bir hudud miqyosida jamlash mamlakat hududlarining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni taminlaydi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasidan malumki, quy junini qayta ishlashni tashkil qilish biznesning eng qulay va kam harajatli sohalaridan biri hisoblanadi.

Junni qayta ishlashning ustunlik tomoni shundagi, u qishloq hujalik mahsuloti hisoblansada, kupchilik mahsulotlardan farqli ularoq, oziq-ovqat mahsulotlari sirasiga kirmaydi. Shu sababli, ishlab chiqarish binolariga ham va ishlovchi hodimlarga ham mahsus talablar quyilmaydi. Ishlab chiqarish binolari joriy qurilish meyorlari va qoidalariga javob berishi kerak. 2-3 liniyadan tashkil topgan o‘rtacha zavodda 5-6 kishi ishlashi bilan birgalikda ishchi-hodimlar mahsus malakaga ega bulishlari shart emas. Shunday qilib, binolarga ham ish haqiga (texnolog yoki

muhandisdan tashqari qolgan ishchilar malakasiz hodimlar hisoblanadilar) ham harajatlar minimal darajada buladi.

Zavodlarni cho‘l-yaylov chorvachiligi rivojlangan hududlarning uziga joylashtirish mahsulotlarni istemolchiga sotishda qulayliklar tug`diradi. Viloyat markazi yoki o‘zga joyda qayta ishlanadigan bo‘lsa, jun vositachilar orqali yetib boradi va narxi oshadi. Shu bilan birgalikda davlatning qishloq joylarga mo‘ljallangan imtiyozlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi mumkin. Bu imtiyozlarga maxsus shartlarda kiriididlar ajratish, soliq tulovidan yengilliklar, texnika sotib olishdagi va lizingga olishdagi qulayliklarni kiritish mumkin.

Junni qayta ishlash uchun kerak buladigan jixozlar tarkibi, zavodga kelib tushadigan junga qay darajada ishlov berilishiga bog`liq. Junni yigirish yoki ishlab chiqarish, yuvib-tozalashga nisbatan ancha ko‘p harajatni talab qiladi. Junni qayta ishlash shaklini tanlashdan kelib tushadigan hom ashyoning hajmini, hududagi jun bozori holatini, ushbu hududdan tashqariga yoki horijga sotish imkoniyatlarini va boshqa omillarni hisobga olish zarur.

Junni yuvib tozalash nisbatan kam capital quyilmalar talab qilinadigan ishlab chiqarish hisoblanadi. Yuvish ham katta mehnat talab qilinadigan jarayon. Zavodga kelib tushadigan mahsulotni jun hom ashyosi standardlari talablariga muvofiq qabul qilish va navlarga ajratish, ishlov berish keyin esa alohida sotish jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Dastlab jun mahsus mashinalarda yuviladi, suvi siqib chiqariladi hamda quritish mashinasida quritilagndan keyin toylanadi va sotishga yuboriladi.

Liniyaning yangi narxi be vosita uning yangi quvvatiga bog`liq. Misol uchun mehnat unumdorligi 10-20 kg/soat bo‘lgan junni yuvish va quritish liniyasi 15000 $ atrofida turadi, mehnat unumdorligi 400kg/soat bo‘lgan liniyaning qiymatini taxminan 315-320 ming dollor. Bundan tashqari junni yuvish va quritish liniyasi quvvatiga mos bug` qozoni ham zarur. Mehnat unumdorligi 2 tonna va 10 atmasfera bosimiga ega bo‘lgan buq qozoni 61.0 ming dolor atrofida turadi. Ishlatilgan suvni

tozalash va qayta ishlatish uchun tozalash inshoati kerak buladi. Bu inshoat 80 ming dollar turadi. Junni preslab tayyorlaydigan (800 x 400 x 600 mm va og`irligi 70-80 kg) stakon 4800 $ turadi. Junning toylangani toylanmaganiga nisbatan yuqori baholanishini takidlash urinli. Shu sababli, jun preslash stanogi ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirishning dastlabki bosqichi deyish mumkin.

Tozalangan jundan ip ishlab chiqarish ancha murakkab texnologik jarayon. Bu ko‘p miqdorda investetsiya va ishlab chiqarish binolarni kengaytirishni , hamda xizmat qiluvchi xodimlar sonini ko‘paytirishni (junni yuvishda 7-8 kishi band bo‘lsa ip ishlab chiqarishda 20-25 kishi ishlaydi) talab qiladi. Jun yigirish mashinasi 400,0 ming dollor , ip ishlab chiqarish liniyasi quvvatiga (1smenada 4 yoki 8 t) qarab 580990 ming dollor turadi.

Jun ishlab chiqarishning asosiy manbasi – qo‘ychilik qorako‘lchilik, echkichilik va tuyachilik kabi soxalarni o‘z ichiga oluvchi cho‘l-yaylov chorvachiligi. Deyarli 22,0 mln. bosh mayda shoxli mollarning 6,0 mln.boshdan ko‘prag’I qarako‘l yo‘llari 2,0 -2,3 ming boshi echkilar va 21-22 ming bosh tuyalar O‘zbekistonda yetishtiriladigan junning asosiy qismini dag’al jun tashkil etib ularning Ichida qora qo‘ylari juni nisbatan yuqori sifatga ega . Respublika

“qoraqo‘ychilik” uyushmasi tizimida junni tayylorlash va qayta ishlab “Qizilqum BUUL Tekc “ qo‘shma korxonasi (1500 tonnagacha Navoiy viloyati), “Keles jun” (1500 tonnagacha Toshkent viloyati) “Komtekc POOSH “ (Buxoro viloyati) kabi ko‘rxonalarda markazlashgan xolda amalga oshiriladi . Bu korxonalar turli sabablarga ko‘ra o‘z quvvatlaridan to‘liq foydalana olmayabdilar. **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Каюмов Ф.К. и др. Каракулеводческий подкомплекс и его роль в формировании конъюктуры рынка. Т. «Узинформагропром», 1993. 96 с.
2. Нурумбетов Т.Я. Каракулеводческий подкомплекс: состояние и основные пути развития/ Т.Я Нурумбетов// АПК: экономика, управление. № 11. 1990, С. 57-59.
3. Зволинская О.В., Головин О.В. Теоретические подходы к формированию муниципальных ресурсоэффективных агропродовольственных комплексов/ О.В.
Зволинская, О.В. Головин // Вестник РУДН, - 2009, № 3. -С. 85-91.

4. Тангиров А.Э. Совершенствование продажи продукции пустынно-пастбищного животноводства и модернизация отрасли. // Формирование и развитие сельскохозяйственной науки в XXI веке //с.Соленое Займище-2016. С.509-514. 5. Асамов С.А. Получение баранины и каракули на промышленной основе.Т.1988 г.

6. И.Саламов, Ш.Нурманов «Неравноценность в агропромышленном комплексе и пути ее устранения» Международный научный журнал «Научный Фокус» №7(100) часть 2 ноября, 2023 298-303 бетлар

7. A.E. Tangirov, Sh. Nurmanov “Disparity of price in the agroindustrial complex and ways of overcoming” *international conference:*
"Prospects for the introduction of innovative technologies in the development of agriculture" Published by Research Support Center. 267-275 betlar. Date 08.05.2023.

8. Sh. Nurmanov “innovative technologies for processing of karakul pelts and their economical efficiency” Journal of Advanced Scientific Research Vol.3. Issue 3 page 49-56. Date 08.05.2023.
Impactfactorsearch 8.4

9. Sh. Nurmanov, G. Eshimova “Banklarining muammoli kreditlar bilan ishlash usullari” *“World of science” republican scientific journal* Collection of materials 25 th february 2024 volume-7, issue-2

CONTENTS ECONOMICAL SCIENCE

Сафарова Дильшода Фарруховна. – Теоретические и методологические проблемы инновационной и цифровой экономики и стратегические направления их решения. …….3
У.А. Салиходжаева. – Статистическое исследование рынка труда Узбекистана. ……...10
Nurmanov Sherzod Xo‘jayarovich. – Chorvachilik tarmog‘ida mahsulotlarni qayta ishlash samaradorligini oshirish imkoniyatlari. …….15

MEDICAL SCIENCE

U.I. Usmanova, U.Kh. Musashaykhov, D.A. Nabieva. – Ассоциация полиморфизма C786t гена NOS3 с экспрессией enos у лиц с эссенциальной артериальной гипертензией и ожирением. ……..25
Абдурахимова Дилноза Равшановна, Касимова Раьно Ибрагимовна, Бригида Кристина Степановна, Абдурахманова Дилдора Нуриллохоновна, Кан Наталья Георгиевна. – Сравнительный анализ молекулярно-генетических и иммунологических показателей у пациентов до и после трансплантации печени при вирусных гепатитах. …28
Кадыров Ж.Ф., Зиядуллаев Ш.Х. – Влияние полиморфизма HLA-DRA rs8084 на течение ВИЧ1-инфекции. …….36
U.I. Usmanova, U.Kh. Musashaykhov, [1]D.A. Nabieva. – Анализ полиморфизмов Arg389Gly и Ser49Gly гена ADRB1 и циркадных профилей артериального давления у лиц с эссенциальной артериальной гипертензией и ожирением. ……..……38
Юсупов Илхом Кобулжонович, Набиева Дилдора Абдумаликовна, Хидоятова Мухлиса Рахматиллаевна. – Системная склеродермия, осложненная хронической болезни почек. ……42
Халимова З.Ю., Хамраева С.М. – Исследование связи хронической сердечной недостаточности и тиреотоксикоза через призму клинических и гемодинамических факторов. ……..45
Акилов Х.А, Примов Ф.Ш., Напасов С.С. – Роль алгоритма лечебно-диагностической тактики на основании методики лапароскопии при тяжелой сочетанной травмой с повреждением живота у детей. ……..47
Akbarova G.Kh., Mamasoliev N.S. – Innovative approaches to the prevention of reproductive diseases in female students and adolescent girls engaged in various sports. ……49
Kamilov Kh.M., Kasimova M.S., Khamrayeva G.Kh., Ismailova D.F. – The role of corneal topography in scleral lens fitting for patients with iatrogenic keratoectasia. ……51
Kholikova A.O., Abidova D.Kh., Usmonova G.B. – “The significance of using the questionnaire “Quality of Life in Adults with Growth Hormone Deficiency” in patients with non-functional pituitary adenomas (NFPA)”. ……53
Z. Tillyakhodjaeva. – Influence of specific weather conditions on weather-dependent people: mechanisms and consequences. ……55
Makhudbekov Boburmirzo Odiljon ogli. – Improvement of complex treatment of lower jaw odontogenic osteomyelitis in children. ……..58
Narzullayev Ilg’or Dilmurodovich. – Immuno-pathogenetic changes if the respiratory system is damaged in patients with rheumatoid arthritis. ……64
Sadikova Z.Sh., Li D.T., Babajanov Q.B. – Age-related histochemical changes of the menissa.66

Байрамов С.Д. – Роль оксипролина и магния в персонализированной профилактике невынашивания беременности при истмико-цервикальной недостаточности на фоне дисплазии соединительной ткани. ……71
Кариев Сарвар Собитжонович. – Эректильная дисфункция и репродуктивные нарушения у мужчин с хронической болезнью почек на заместительной почечной терапии. ……....73
С.С. Кариев, Ф.Р. Насиров. – Особенности клинического проявления эректильной дисфункции у реципиентов после пересадки почки. ……75

Nazaraliyev Elyor Dilshodovich. – Оптимизация хирургического лечения паховых и паховомошоночных грыж у военнослужащих. ……77
Kristine Sulakadze. – Unlockin Healthcare's Economic Potential: Strategies for Enhanced Revenue Cycle Management and Loss Prevention. ……..80

PEDAGOGICAL SCIENCE

Maksumova Maxfuza Sharof qizi. – Development of the professional activity of future specialists based on an integrative developmental approach. ……84
Jurayeva Surayyo. – The effectiveness of universal educational technologies in teaching natural sciences. ……90
Avazbekova Shohsanam Nurmamat qizi. – Green economy pedagogy: methodology for formatıon ın prımary students. 94

PHILOLOGICAL SCIENCE

Ш.М. Жалгасбаева. – Разработка модели искусственного интеллекта для распознавания динамических жестов каракалпакского языка. ……100

PHILOSOPHICAL SCIENCE

Юлдашува Матлуба Мунаваровна. – Мафкуравий ислоҳотларда ёш авлодни миллий ғоя ва қадриятлар асосида тарбиялаш. ……..103

STATE AND LAW

Абдуллаев Фарходжон Махмудович. – Принципы деятельности органов прокуратуры по обеспечению конституционной безопасности республики Узбекистан. ……106
Eldor Tulyakov. – Think Tanks and the Architecture of Policy Reform: Functions, Models, and Global Influence. ……114